

**ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ
ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ
ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР**

халқаро илмий-амалий анжуман материаллари

ТЎПЛАМИ

2022 йил 15 апрель



Бухоро

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университети

**ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ
ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР
ВА ИСТИҚБОЛЛАР**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман
материаллари**

ТЎПЛАМИ

Бухоро - 2022

same time, author's phrases can be replaced by more familiar phrases, and the meaning of the context can be explained using more terminology that is accessible.

Particular attention should be paid to texts on economics, since some economic realities of the Russian Federation may not have an equivalent abroad. Thus, when translating into English, it is difficult to convey the difference between "farming" and "personal subsidiary farming", since these formulations in different countries denote far from identical concepts. In such cases, explanatory dictionaries can help, which describe the wording and examples of their use.

Auxiliary resources in translation

In general, the main task of translating an abstract is the correct selection of a concept or displaying the meaning of the text in the original in the target language. Often various information retrieval resources can help with this: specialized paper dictionaries, electronic dictionaries, dictionaries of standardized vocabulary (thesauri).

III. Conclusion

As a result, we can say that for an adequate translation of abstracts of scientific articles on agricultural topics, and in general, any translation, one should not rely on the correctness of the result issued by the translator machine. Such translations must be carefully edited and the terms chosen correctly, using thematic paper and electronic dictionaries, as well as information retrieval tools (thesauruses).

References:

1. English-Russian biological dictionary / ed. O.I. Chibisova. - M.: Russian language, 1993. - 736 p.
2. English-Russian agricultural dictionary / ed. V.G. Kozlovsky and N.G. Rakipova. - M.: Russian language, 1983. - 880 p.
3. English-Russian Polytechnical Dictionary / ed. A. E. Chernukhina. - M.: Russian language, 1979. - 688 p.
4. Translation of agricultural texts and articles [Electronic resource]. - Access mode: - (<http://perekl.adach.ru/index/agro>)

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA "VATAN" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI VA TADQIQI

Hayotova Dilafro'z Zoyirovna

Buxoro davlat universiteti "Nemis va fransuz tillari" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslik fani, uning yangi yo'nalishlari bo'lgan lingvokulturologiya, konsept, vatan konseptining o'zbek va nemis tilidagi talqini to'g'risida fikr yuritiladi. Qolaversa, vatan konseptiga doir olimlarning nazariy qarashlari haqida ma'lumotlar beriladi

Tayanch so'zlar: lingvokulturologiya, termin, tushuncha, vatan, konsept, leksema sxema, etnografiya, psixologiya, ssenariy.

Lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, til va madaniyatning to'qnashuvi asosida hosil bo'lgan va bir vaqtning o'zida barcha xalqlarning tilida aks etadigan madaniyat, urf-odat, an'analarni o'rganadigan fan hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologiya fani orqali milliy qadriyatlar, an'analari va madaniy shakllarning lison (ong) va tilni shakllantirishi; uni ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan qolipga solishi; mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini hosil qilishini ham o'rganishimiz mumkin. Bundan shu ayon bo'ladiki, lingvokulturologiya fanida tadqiq qilinayotgan til orqali nafaqat hozirda mavjud til xususiyatlarini, balki, o'tmishda va hozirda shu tilda muloqot qilgan xalq madaniy hayoti, urf-odati va qadriyatlarini ham bilib olish mumkin. Demak, bu o'rinda lingvistika (lingvokulturologiya) xalqlarni yanada chuqur o'rganishda madaniyatshunoslik, tarix, psixologiya, etnografiya kabi fanlar bilan hamkorlik qilishini ta'kidlash joiz.

Lingvokulturologiya fanining tadqiqot obyekti sifatida, asosan, xalq og'zaki ijodi namunalari olishimiz mumkin. Negaki, ibora, maqol, matal, hikmatli so'zva metaforalar asrlar osha lingvistik omil asnosida milliy qadriyat va an'analar, umuman, o'sha millat haqida to'liq ma'lumot saqlanib qolgan bebaho xazina sanaladi. Buyuk rus tilshunosi Larin iboralarga quyidagicha ta'rif bergan: "Iboralar har doim xalq dunyoqarashini, ma'lum davrga xos ustuvor g'oyalarni, jamiyat quruluşini ifodalaydi. Bu tong yorug'i quyosh shu'lasini orqali ayon bo'lganidek aniq ifodalanadi".

Ma'lum bir tilni o'rganish uchun unga qardosh tilni ham chog'ishtirib ko'rish va har ikkalasini qiyosan tadqiq etish tilshunoslik fani uchun yaxshi metodlardan biri sanaladi. Shunday ekan, lingvokulturologiyada ham bir-biriga har taraflama yaqin va o'xshash bo'lgan bir oilaga mansub tillarni o'rganish yaxshi samara beradi. Zero, bazi holatlarda madaniy qadriyatlari, joylashish o'rni, mansub bo'lgan til oilalari, gramatik quruluşi, leksikasi jihatdan butunlay farq qiladigan tillar lingvokulturologik asnoda o'rganilganda xalq og'zaki ijodi namunalari mavjud o'xshashlik tadqiqotchini hayratga soladi. Qadimdan mavjud bo'lgan "Buyuk ipak yo'li" va boshqa iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalar natijasida turli millat va elatlar adabiyotida paydo bo'lgan ijod namunalari bugungi avlodga meros qilib qoldirilganligini isbotlaydi.

XXI asrda lingvistik nafaqat aloqa-aralashuv vositasibolmish tilni, balki millatning madaniy belgisini yoritib beradigan yangi yo'nalishni ham tadqiq eta boshladi. Tilga bunday yondashuv V.Gumboldt va A.A.Potebn kabi olimlarning qo'ygan tamal toshlari asosida bo'ldi. Shu o'rinda V.Gumboldtning: "Millatim tiliga qo'yilgan to'siq mening dunyoqarashimga qo'yilgan to'siq demakdir", degan fikri har bir xalq tili uning madaniyati, urf-odat va hatto, dunyoqarashi bilan naqadar bog'liq ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Shunday ekan, har bir tilni o'rganar ekanmiz, tadqiq etiladigan davr, millat, uning madaniy hayoti, mavjud siyosiy tizim, mamlakatning iqtisodiy ahvoli kabi xususiyatlarni bilish va tadqiqot ishida aniqlangan ma'lumotlarni inobatga olish juda muhim omil sanaladi.

Til kishi yashayotgan haqiqiy hayotni tasvirlab bera oladigan muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli g'arb davlatlari falsafasi bir necha ming yillar mobaynida "tilshunoslik ombori"dan unumli foydalangan holda boyib bormoqda. Hozirgi davr buyuk faylasuflaridan biri bo'lmish A.M.Xaydegger tilni "Qulayliklar uyi" deya ta'riflaydi. Shuning uchun ham, lingvistik – til haqidagi fan, har qanday ijtimoiy fanni o'rganish jarayonida muhim metodologik asos, baza (ombor) vazifasini o'taydi. Demak, xalqlar madaniyati yoki madaniyatshunoslik fanlarini o'rganish jarayonini ham tilshunoslik fanidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, lingvokulturologiya fanida til nafaqat hozirgi xalqlar mentalitetini, balki qadimgi davr xalqlari dunyoqarashi, ularni o'rab turgan atrof-muhit, mavjud jamiyat va o'ziga bo'lgan munosabati ham o'rganiladi. Chunki, yuqorida sanab o'tilgan belgi-xususiyatlarning bari xalq tomonidan yaratilgan va asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqol, matal, ibora, metafora va hikmatli so'zlarda saqlanib qolgan. Shu narsa qiziqki, odamzot o'z ona tili va milliy qadriyatlarini yoshlikdan o'zlashtirgan, o'rgangan taqdiridagina, haqiqiy ma'nodgi insonga aylanishi mumkin. Negaki, xalqning eng nozik qadriyatlari va madaniyati shu til orqali gavdalanadi. Buni biz hammaga mashhur bo'lgan Tarzan va Maugli ismli bolalar hayotida sodir bo'lgan voqealar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Zero, tug'ilganidan hayvonot dunyosiga tushib qolgan va shu sharoitda voyaga yetgan bolalarda hech qanday insoniy fazilat, madaniyat va hatto, lisoniy zabonning ham yo'qligi ularni o'z tengdoshlari va zamondoshlaridan tubdan ajratib turardi. Zotan, hayvonlar tilini o'zlashtirgan Maugli va Tarzan uchun shu jamiyat urf-odatlari, an'analari va o'ziga xos bo'lgan madaniy hayot odatiy hol edi.

Atrofni o'rab turgan olam haqidagi ma'lumotlarning ko'pi insonlarga lisoniy omil asosida yetkazib beriladi. Shuning uchun ham, kishida moddiy olamdan ko'ra, ma'naviy olam qurshovi kuchliroq bo'lib, intellektual, milliy, ijtimoiy zarur bilimlarni shaxsiy leksikonda takomillashtirib boradi. Ko'p hollarda, hali amalda ko'rmagan va bilmagan voqea-hodisa, narsa-buyum, fan-texnika yangiliklari haqida qandaydir lug'at boyligi va uning izohlangan tasavvuri xalq ongida mavjud bo'ladi. So'z qo'llash mahorati ham kishining jamiyatga qanchalik moslashganini, barcha yangiliklardan xabardorlik darajasini ko'rsatadi. Ko'p hollarda, leksik

qobiliyat insonning jamiyatdagi mavqeini ham belgilab beradi. Hatto, faylasuflar: “ma’lum so’zni butunlay anglab yetish uning moddiy holatini o’rganishni osonlashtiradi”, deyishadi. Ya’ni, yaratilgan kashfiyotning o’zini ko’rishdan oldin uning nomlanishi va xususiyatlarini o’rganish qo’lga kiritilgan ishni tushunishni birmuncha yengil qiladi.

Demak, lingvokulturologiya fani ma’lum xalq madaniy hayoti, undagi yutuq va kamchiliklar, yaratilgan yangiliklar va kashfiyotlarni lingvistik omil asosida o’rganadi, deyish mumkin. Shuningdek, lingvokulturologiyada insoniyat umri davomida mavhum saqlaydigan sirsinoatlardan eng muhimi ya’ni, ma’lum bir xalqqa tegishli bo’lgan lingvistik abstrakt tushunchalar ham o’rganiladi. Uni ochish yoki javobini topish orqali millatning asrlar davomida qilgan ishlari, bajargan amallari hamda erishgan yutuqlari va hatto, boshqa xalqlardan sir saqlagan tilshunoslikka oid tushunchalarini ham bilib olish mumkin. Shunday ekan, bizning maqsadimiz tilshunoslik ortida yashiringan, barcha xalqlarga xos bo’lganichki va madaniy xususiyatlarni aniqlashdir.

Vatan — kishilarning tugilib o’sgan joyi, yurti, mamlakati, tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o’ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmuidir.

Vatan — (arab. vatan — ona yurt) kishilarning yashab turgan, ularning ajdod va avlodlari tug’ilib o’sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan kishi yoki avlodlar tug’ilib o’sgan va kamol topgan zamin, o’lkadir. Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Tili, e’tiqodi, urf-odatlar va milliy sifatleri bir bo’lgan avlodlar yashagn va yashayotgan jo’g’rofiy muhit Vatanni ifoda etadi. Vatan — insonning o’z uyi-ro’zg’ori, yashab turgan diyori ma’nosida tushunilib, u keng va tor ma’noda ham qo’llaniladi. Biror xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma’nodagi tushunchadir. Kishi tug’ilib o’sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa bu tor ma’nodagi tushunchadir. O’zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo’lidagi bosh g’oyasi - mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqol mafkurasining asosiy g’oyalari o’zining mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan bosh g’oyani xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi. Kishilarimizning ma’naviy yuksakligi vatanimiz ravnaqining kafolotidir. Vatan - insonning kindik qoni to’kilgan muqaddas zamin, uni kamolot sari etaklovchi tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan eng buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira. Vatan- ota-bobolarimizning xoki poklari jo bo’lgan, vaqti-soati yetib har birimiz bosh qo’yadigan muqaddas zamin. Vatan - bu xalqning o’tmishi, buguni va kelajagi. Xalqimiz Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmagan. Kishi ulg’aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengaya boshlaydi. Ostona, uy, mahalla, qishloq, shahar, tuman, viloyat va nihoyat mamlakat darajasiga ko’tariladi. Tushuncha va kechinmalar nuqtai nazaridan esa vatanparvarlik tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo’lib, tashqi muhit va davrlar ta’sirida shakllangan va o’zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg’udir. Vatani bor odamning gurur-iftixori yuksak bo’ladi. Togdek tayanchi - Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi. Kurrai Zamin - Er sayyorasi butun jumlai jahonda yashayotgan olti milliarddan ziyod xalqlar uchun Vatan hisoblansa, har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hudud ona-Vatandir. Vatanni, ota-onani tanlamaydilar. Ular yaratganning o’zi tomonidan berilgan ulug’ va muqaddas ne’matdir. Ana shu ulug’ ne’matni, asrab-avaylash, uning sarxadlarini gullatib-yashnatish o’z qo’limizda. Vatan so’zi hamisha ona so’zi bilan yonma-yon keladi. Bu shunchaki oddiy gap emas. Otasiga hurmatu ehtirom saqlagan farzand vatanni ham mukarram tutadi. Demak, dunyoda ona bitta, Vatan ham, Vatanga muhabbat tuyg’usi ham ilohiy bir ne’mat, shuning uchun ham u har bir kishiga aziz va muqaddasdir. Vatan insonning kindik qoni to’kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan - ota-bobolarimizning hoki poklari jo bo’lgan muqaddas zamindir.

“Vatan” konsepti ko‘p qirrali bo‘lib, unda xalqning o‘tmishi, buguni kelajagi mujassamdir. Inson ulg‘aygan sari uning vatan haqidagi tushunchasi ham kengayib boradi. Vatan har bir kishining qalbida yashaydi. Vatan atamasiga ulug‘lar, donolar turli sifatlar berishgan. “Vatan-odamning kindik qoni to‘kilgan yerdir” degan ta‘rifga o‘zbek yozuvchisi Tohir Malik quyidagi fikrlarni bildiradi: “Vatan-odamning kindik qoni to‘kilgan yerdir” degan ta‘rifga e‘tiroz bildirmagan holda shartli tushuncha ekanligini ta‘kidlaydi. “Agar tug‘ilgan to‘la ma‘noda vatan bo‘lganida edi, biz tomonlarda tug‘ilib o‘sgan nemislar, yunonlar, yahudiylar, Qrim tatarlari va yana boshqa millatning vakillari ota-bobolari yurtiga ko‘chib ketmas edi”. Vatan ostonadan emas, balki har bir kishining qalbidan, vijdonidan boshlanadi. Vatanga muhabbatni jamlay olgan yurak faqat odam bolasiga xosdir.

Heimat so‘zini etimologik tahlil qiladigan bo‘lsak, bu so‘zning paydo bolishi (Mittelhochdeutsch-1050 yildan 1350 yilgacha bolgan) 1050 -1350 yillarga borib taqaladi va *heimote, heimuote, heimoti* “joy, makon inson tug‘ilgan joyi, o‘zini o‘z uyidek his qiladigan joy ma‘nosini anglatadi. Nemis tilida *Heimat* so‘zi fonetik o‘zgarishga XV duch kelgan. XVII asrgacha bu so‘z sredniy rodga qo‘llanilgan. Hozirgi kunda biz bu so‘zni jenskiy rod bilan ishlatamiz, ammo hozirgi kunda ham ba‘zi hududlar shevasida sredniy rodga ishlatilayapti. *Heimlich* sifati ham XVIII asrdan boshlab olmon tilda qollanilgan va “vatanga ta‘luqli, tugilib o‘sgan joyga ta‘luqli ekanligini bildiradi”. Aka-uka Jakob va Vilhem Grimmlarning “*Deutsches Wörterbuch*” kitobida *Heimat* va *Vaterland* so‘zlarining asosiy ma‘nolari haqida ma‘lumotlar mavjud. *Vaterland* so‘zi *Heimat* so‘zidan keyin paydo bo‘lgan. [8] “*Das grosse Wörterbuch der deutschen Sprache*” kitobida *Heimat* leksemasini ikkita ma‘noga ajratadi: a) *Land, Landesteil oder Ort, in dem man [geboren und aufgewachsen ist] oder sich durch ständigen Aufenthalt zu Hause fühlt (oft als gefühlbetonder Ausdruck enger Verbundenheit gegenüber einer bestimmten Gegend); b) Ursprungs-, Herkunftsland eines Tiers, einer Technik oder anderes.*

Ularning birinchisida, insonning muayyan joyga, uning qacarda tug‘ilganiga bog‘liqligi haqidagi insoniy tuyg‘ularga asoslanadi, bu qiymat insonning biror joyga bog‘lanishiga asoslanadi. Leksemaning ikkinchi ma‘nosi sof moddiy asosni aks ettiradi, chunki u mamlakatning kelib chiqishini yoki hayvonot dunyosi yoki texnologiya dunyosining yaratilishini, kabi ma‘nolarni ko‘rsatadi.

“Meyer neues Lexikon”da quyidagi fikrlar berilgan: “*Heimat, subjektiv von einzelnen Menschen oder kollektiv von Gruppen, Stämmen, Völkern, Nationen erlebte territorial Einheit, zu der rein Gefühl besonders enger Verbundenheit besteht*”. Ushbu talqinda yana ma‘lum bir hududga bog‘lanish tuyg‘usini haqida gap ketgan bo‘lib, ammo bu bog‘lanish shaxs yoki odamlar guruhida ularning subyektiv dunyoqarashi asosida shakllangan, lug‘at tuzuvchilar bu odamning tug‘ilgan joyiga bog‘liqligini ko‘rsatmaydilar. “*Das Psychologie - Lexikon*” kitobida insonning tug‘ilgan joyga intilishi haqida gap boradi. Odatda bu inson o‘z o‘ziga ulg‘aygan va bolaligini o‘tkazgan joyga bog‘liqlik tuyg‘usi ko‘proq ma‘lum bir landshaftda, o‘ziga xos muhitda va millat va xalqida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, “ota-ona uyi” tushunchasi inson hayotida katta ahamiyatga ega, chunki vatandan uzoqda, “chet elda” yoki “begona yerda” inson o‘z bolaligini, tug‘ilib o‘sgan joyini sog‘inib yashaydi. [7]. Nemis tilida “Vatan” konsepti ikkita leksema bilan beriladi: *Vaterland* va *Heimat*. Bu ikki so‘zning qo‘llanilishi tarixiy voqealarga borib taqaladi. Germaniya ministiri bo‘lagan faylasuf Y. Gebbel (16-mart, 1942 yilda) o‘zining farmoyishida har bir kishi vatan uchun o‘zini qurbon qilib, qahramon bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydi. Shu farmoyishdan so‘ng olmon xalqi *Heimat* so‘zi o‘rnida *Vaterland* so‘zini ishlata boshlashdi. [3]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Monografiya. Fanlar akademiyasining “Fan” nashryoti. – Toshkent, 2016
2. Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filolog fan diss Toshkent, 2017. –B. 45;48

3. Игнатова.Е.М Концерт Родина в социально-культурном контексте Германии.Вопросы филологии-2006-№С-8
4. Аскольдов С. Концепты слова Русская Словесность. М, 1997, – С.269
- 5.Арутюнова Н. Д. Воля и свобода / Н. Д. Арутюнова // Логический анализ языка. Космос и хаос. Концептуальные поля порядка и беспорядка. – М. :Индрик, 2003. – С. 73–100.
6. Пименова М. В. Концепт сердце : Образ. Понятие. Символ : монография / М. В
7. Das Psychologie – Lexikon.-Deutschland,2008
- 8.Akademie der Wissenschaften zu Göttingen Deutsches Wörterbuch von Jacob Grimm und Wilhelm Grimm.-Berlin,2013.
9. Rahmatov, A. (2021). FLIP TEACHING» КАК ИННОВАЦИОННЫЙ СПОСОБ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1542
10. Hayotova D.Z (2021). NATIONAL-CULTURAL LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF THE CONCEPT OF HEIMAT (HOMELAND) IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES . ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/939
11. Lola IkromovaScientific And Theoretical Views About The Description Of The Notion Frame In Linguistics
<https://ijpsat.ijsht-journals.org/index.php/ijpsat/article/view/3147>
12. Mahmudova D.H. Sadridin Salim Bukhariy’s role in the development of the literary environment of Bukhara in the late XX and early XXI centuries. Scholastico-2021. Angliya – 2021. 92-96 b.
13. Kuldashaeva N.B. THEORETICAL VIEW POINTS OF LINGUISTS ON TERMINOLOGY. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science, p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2019 Issue: 12 Volume: 80. 2019. – P. <http://T-Science.org>;
14. Juraeva M.M. Theoretical Views of Concept, Frame, Tale-Concept, Tale-Frame in Cognitive Linguistics. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) Volume-8, Issue-5S3, 2019. – P. 392-395. <https://www.ijeat.org/wp-content/uploads/papers/v8i5S3/E10840785S319.pdf>
15. Abbarova M.X.TWO STORIES - TWO DESTINIES Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 2,2021 <http://uniwork.buxdu.uz/hujjat.asp?id=4456>
16. Juraeva Nilufar Shukhratovna "THE MAIN AREAS (SPHERES) OF EUPHEMISMS AND TABOOS IN FRENCH LINGUISTICS"
https://buxdu.uz/docs/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_5_son_2020.pdf#page=136
17. Adizova, O. (2021). В НАУЧНО-БИОГРАФИЧЕСКИХ РАБОТАХ АЗИЗА КАЮМОВА ОБ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКАХ СОЗДАТЕЛЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 6(2). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2055
18. Jumaev, E. (2021). Семантические особенности аффикса -(и)бди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 5(5). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2432
- 19.. Bobokalonov R.R. , Bobokalonov P.R., Hayatova N. "Meaning of canonical words-sentences in the spirit of tolerance" PHILOLOGY, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, N2(26), Volgograd 2020, 40-43 pp.
<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/562>
20. Akramov, B. (2021). Osobennosti terminologii turizma vo fransuzkom yazike. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 2(2).
http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1616
21. Hayitova.G.B. Terminology in Agriculture
<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/614>
<https://cejsr.academicjournal.io/>(<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/614>)